



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-mart*



NAVOIY VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **1079,9** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **4,6** ming kishiga yoki **0,4 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **531,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,2 %**), qishloq aholisi soni **548,8** ming kishi (**50,8 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1079,9 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+4,7 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



49,2 %

Qishloq



50,8 %


Navoiy viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-mart



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- aprel holatiga



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining **31,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024-yil 1-aprel holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1-aprel holatiga, kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	1 060 551	1 079 927	101,8
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	157 067	162 848	103,7
Zarafshon	86 950	88 884	102,2
G'ozg'on	9 142	9 272	101,4
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	136 479	139 380	102,1
Konimex	37 509	37 376	99,6
Qiziltepa	159 873	162 364	101,6
Navbahor	119 369	121 213	101,5
Nurota	88 424	89 816	101,6
Tomdi	15 850	15 512	97,9
Uchquduq	39 301	39 449	100,4
Xatirchi	210 587	213 813	101,5

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Navoiy viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 9,7 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 0,2 kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga 9,5 kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Zarafshon shahrida 4 444,2 kishi, Navoiy shahrida 2 714,1 kishi kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tomdi tumanida 0,4 kishi, Uchquduq tumanida 0,8 kishi, Konimex tumanida 4,0 kishini tashkil etgan.

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR




Tug'ilganlarning taqsimlanishi


Yanvar



Fevral



Mart



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart, kishi


Hudud nomi	Tug'ilganlar soni	Koeffitsiyenti (%)
Xatirchi t.	1126	21,2 %
Navoiy sh.	1066	26,5 %
Qiziltepa	831	20,6 %
Karmana	780	22,6 %
Navbaxor	612	20,3 %
Nurota	521	23,4 %
Zarafshon sh.	493	22,4 %
Uchquduq	194	19,8 %
Konimex	164	17,6 %
Tomdi	51	13,2 %
G'ozg'on sh.	33	14,3 %

2024- yil yanvar-mart oylarida **5 871** ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **21,9** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **2,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilda **24,0** promilleni tashkil etgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart, kishi


2024- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining **63,9 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,8 %** i – o'simtalardan, **4,9 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,7 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,4 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,5 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **11,8 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.



VAFOT ETGANLAR






Vafot etganlarning taqsimlanishi



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart, kishi



2024- yilning yanvar-mart oylarida **1 180** ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,9** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **3,5** promille bo'lgan).

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar

Shahar
191

Qishloq
181



51,3 %

48,7 %

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-mart, birlik

Navoiy sh.	230	5,7 ‰
Xatirchi	194	3,7 ‰
Qiziltepa	165	4,1 ‰
Karmana	124	3,6 ‰
Navbaxor	111	3,7 ‰
Zarafshon sh.	80	3,6 ‰
Nurota	70	3,1 ‰
Konimex	41	4,4 ‰
Uchquduq	35	3,6 ‰
Tomdi	9	2,3 ‰
G'ozg'on sh.	5	2,2 ‰

Fevral

Shahar
194

Qishloq
153



55,9 %

44,1 %

Mart

Shahar
213

Qishloq
132




61,7 %

38,3 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida **1 064** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,4** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar

Shahar
70



58,8 %

Qishloq
49



41,2 %

Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart, birlik

Navoiy sh.	72	1,8 ‰
Karmana	57	1,6 ‰
Xatirchi	56	1,1 ‰
Qiziltepa	54	1,3 ‰
Zarafshon sh.	25	1,1 ‰
Navbahor	16	0,5 ‰
Nurota	12	0,5 ‰
Konimex	10	1,1 ‰
Uchquduq	7	0,7 ‰
G'ozg'on sh.	1	0,4 ‰
Tomdi	0	0,0 ‰

Fevral

Shahar
62



54,9 %

Qishloq
51



45,1 %

Mart

Shahar
43



55,1 %

Qishloq
35




44,9 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida **310** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-mart oylarida **1,4** promille bo'lgan).


Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart



2024- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **46,5 %** i farzandsiz, **33,2 %** i bitta farzand bilan va **20,3 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

JAMI KO'CHIB KELGANLAR



Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

Yanvar

Erkaklar **492** Ayollar **531**



48,1 % **51,9 %**

Fevral

Erkaklar **585** Ayollar **543**



51,9 % **48,1 %**

Mart

Erkaklar **380** Ayollar **377**



50,2 % **49,8 %**

Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart, kishi

Navoiy sh.	1409	35,0 ‰
Zarafshon sh.	427	19,4 ‰
Karmana	342	9,9 ‰
Uchquduq	198	20,2 ‰
Qiziltepa	172	4,3 ‰
Xatirchi	129	2,4 ‰
Navbahor	113	3,8 ‰
Tomdi	50	13,0 ‰
Nurota	47	2,1 ‰
Konimex	13	1,4 ‰
G'ozg'on sh.	8	3,5 ‰

2024-yilning yanvar-mart oylarida **2 908** ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **10,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **2,5** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **8,4** promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

Yanvar

Erkaklar **513** Ayollar **516**



49,9 % **50,1 %**

Fevral

Erkaklar **535** Ayollar **524**



50,5 % **49,5 %**

Mart

Erkaklar **423** Ayollar **429**



49,6 % **50,4 %**

Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-mart, kishi

Navoiy sh.	665	16,5 ‰
Xatirchi	432	8,1 ‰
Zarafshon sh.	385	17,5 ‰
Karmana	357	10,3 ‰
Qiziltepa	259	6,4 ‰
Nurota	205	9,2 ‰
Uchquduq	199	20,3 ‰
Navbahor	192	6,4 ‰
Konimex	142	15,3 ‰
Tomdi	98	25,4 ‰
G'ozg'on sh.	6	2,6 ‰

2024- yilning yanvar-mart oylarida **2 940** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **11,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **1,7** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-mart oylarida **9,3** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 79 223-07-41